

**“MEN TANLAGAN KASBNI EGALLASHDA KELGUSI REJALARIM”
MAVZUSIDA IJODIY ISH**

Xudoynazarova Dilfuzaxon Baxodirjon qizi

Farg’ona viloyati Quva tumani 2-maktab “Texnologiya” fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o’rta ta’lim maktablarida 9-sinflarda texnalogiya fanida kasb tanlashga yo’llashda ““Men tanlagan kasbni egallahda kelgusi rejalarim” mavzusida ijodiy ish loyihasi” mavzusini zamonaviy bilimlarga suyangan xolda o’qitishni o’rgatadi. Hamda turli saytlar va dasturlar yordamida kasbga doir rejalar tuzish uchun taqdimotlar tayyorlashni o’rgatish masalalarini olib beradi.

Kalit so’zlar: texnalogiya, kasb, loyiha, planner, reja, maqsad, orzular xaritasi.

XXI asr texnika asri. Hozirgi kunda axborot texnologiyalari shiddat ilo ishlamoqda. Biz bilamizki jamiyatimizda gadjetlardan foydalanmaydigan shaxslar deyarli yo’q. Aksariyat maktab o’quvchilarida ham telefon, planshet yoki notebooklarni uchratishimiz mukin. Internetdagи platformalarga e’tibor kuchaygan sari zamonaviy kasblar soni tobora ortib bormoqda. Natijada bu sohada kadirlar yetishtirish maqsadida ko’plab yoshlar jalb qilinmoqda. Bunday reklamalar ta’siriga tushib qolgan o’quvchilar ko’p xolatlarda aniq maqsadni topa olmayabdilar. Kamroq ishlab ko’p pul topish masalasi o’rtaga tashlanganda kasb tanlashdagi asosiy tamoyillar e’tibordan chetda qolmoqda. O’quvchilarni qobilyati va qiziqishlaridan kelib chiqqan xolda kasbga yo’naltirish bu juda muxim masala xisoblanadi. O’quvchilar kasblarni tahlil qila olishi, o’zlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini to`g’ri baholay olishlari, kasblarning insonga qo’yadigan talablari bilan o’zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur.

Mavzuni yoritishdan oldin turli interfaol metodlardan foydalangan holda o’quvchilarga quyidagi savollarni berish darkor:


1. Kun tartibingizni qanday rejajashtirgansiz?
2. Tanlagan kasbingizni o’rganish uchun darsdan tashqari necha soat vaqt ajratasiz?
3. Hobbiyingiz nima?

Shu kabi savollarga javob topish yordamida o’quvchilar mavzuni mohiyatini anglashni boshlashadi. Darsda har bir o’quvchini jalb qila oish bu juda muhim masala. Qolaversa kasbga doir mavzular o’quvchilarni kelajagi uchun ahamiyatli xisoblanadi.

Kasbga oid reja – bu insonning kelajagi haqidagi tasavvuridir. Shuning uchun uning tuzilishi insonning o’ziga va uning tajribasiga bog’liq. Kasbiy reja haqida gapirar ekanmiz, vaqt bilan bog’liq hayot yo’lini nazarda tutamiz. Rejajashtirish, odatda, uch xil bo’ladi:

1. uzoq muddatli (bir necha o’n yil);

2. o'rta muddatli (bir necha oy va yil);
3. qisqa muddatli (bir necha kun va hafta).



Canva dasturi yordamida rejalar tuzish.

Yuqorida hafta uchun oylar va yillar uchun reja tuzish namunalari keltirilgan.

O'quvchilarga mavzuni qanchalik zamonaviy dasturlar yordamida tushintirishga harakat qilsak shunchalik darsimiz qiziqarli va samarali bo'ladi. Keling dastlab bir haftalik reja tuzishdan boshlaymiz. Kunni uch qismga bo'lamiz($8+8+8$): 1) 8 soat uyqu uchun, 2) 8 soat ish yoki o'qish uchun, 3) 8 soat oila, hobby va o'z ustida shug'llanish uchun. Kunlik rejalarda haftaning har bir kunida bajarishimiz kerak bo'lgan vazifalarni ro'yxatini yozib chiqamiz. Oylik rejalarda bir oy mobaynida qanday ishlar qilishimiz kerakligini yozib olamiz. Yillik rejada esa bir yil davomida erishishimiz kerak bo'lgan maqsadlarimiz ro'yxatini tuzamiz.

Kasbiy rejani tuzishda esa mashhur psixolog Y.A. Klimov tomonidan tuzib chiqilgan "Shaxsiy kasb rejasi" dan foydalanishimiz mumkin.

Shaxsiy kasb rejasi

1. Asosiy maqsad – qaysi kasbni tanlayman (nima bilan shug'ullanaman, umumiy ish uchun qanday hissa qo'shaman, qanday bo'laman, qayerda bo'laman, kimga tenglashaman, kim bo'laman, nimaga erishaman)?;
2. Eng yaqin maqsadimga erishishning yo'llari va usullari (yordamchi adabiyotlardan foydalanish, mutaxassislar bilan suhbatlashish, o'z-o'zini tarbiyalash, maxsus o'quv yurtlariga kirish);
3. Maqsadga erishish yo'lidagi tashqi to'siqlar (qiyinchiliklar, uchrashi mumkin bo'lgan qarshiliklar, u yoki bu odamlarning qarshiliklari);

4. Maqsadga erishish uchun o'zimning imkoniyatlarim (sog'liq holati, bilim olishga uquv, talabchanlik, sabr, amaliy va nazariy mehnatga moyillik, boshqa shaxsiy xususiyatlar, o'z-o'zini tarbiyalash ishlari);

5. Ularga erishish yo'lida zaxira usullari (mutaxassislik bo'yicha o'qiyman yoki shu yo'nalish bo'yicha qisqa kurslarga qatnashaman);

«Men tanlagan kasb» ijodiy loyihasini tayyorlash

Loyihalar yaratish uchun 7 ta eng yaxshi dasturlar:

1. Microsoft PowerPoint dasturi(<https://www.microsoft.com/ru-ru/microsoft-365/powerpoint?market=ru>);

2. Apple Keynote(<https://support.apple.com/ru-ru/keynote>);

3. LibreOffice Impress(<https://www.libreoffice.org/>);

4. Google Slides(<https://www.google.com/slides/about/>);

5. Prezi(<https://prezi.com/>);

6. Canva(<https://www.canva.com/>);

7. WPS Office(<https://www.wps.com/ru-RU/>);

Loyihani tayyorlash ketma ketligi:

• 1-slayd: tanlangan kasb nomi;

• 2-slayd: kasbning tipi, bu sohaga oid qanday bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak;

• 3-slayd: tanlangan sohaning muhim kasbiy sifatlari, bu sohaga oid shaxsiy fazilatlar;

• 4-slayd: bu kasbda ishchining ishlash sharoiti, tibbiy monelik(cheklovlari);

O'quvchi bu loyihaga shaxsiy kasbiy rejasini ham kiritishi kerak. Slaydlar soni qancha bo'lishi emas, muhimi, o'quvchi o'zi tanlagan kasbi haqida kerakli tushunchaga ega bo'lishi va uni boshqalarga yoritib bera olishidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki biz o'quvchilarga yodlashni emas fikrlashni o'rgatishimiz kerak. Ular kelajakdagi kasblarini atrofdagi insonlarni fikriga qarab emas balki qobilyatlaridan kelib chiqqan holda tanlashlari kerakligini anglata bilishimiz darkor. Biz o'rgatayotgan mavzuyimizni qanchalik hayotimizdagi voqeliklarga bog'lab tushuntursak o'quvchilarning shunchalik fikrlashini kengaytiramiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 9-sinf "Texnalogiya" darslik Z. SATTAROVA, N. ABDUSALOMOVA, N. AHMEDOVA_TOSHKENT «O'ZBEKISTON»-2019

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108 Farmoni. T., 2020 yil 6 noyabr.

3. Razzoqov B.X. Xudoynazarova D.B. TEXNIK IJODKORLIK VA KONSTRUKSIYALASH FANIDA INTERVAL O"YINLARDAN

7 – TOM 5 – SON / 2024 - YIL / 15 - MAY

FOYDALANISH Finland, Helsinki international scientific online conference "SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY" 2023-yil 7-iyun.

4. Xudoynazarova D.B. TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH —ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR|| MAVZUSIDAGI 57-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASI 2023-yil 1-noyabr.

5. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari: o'quv qo'llanma / S.T.Turg'unov, L.A.Maxsudova, M.A.Umaralieva, H.M.Tojiboeva. "Sano-standart" nashriyoti 2012 yil.